



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “25” aprel

BUYRUQ № 56

Toshkent sh.

**“Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar
hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 28- fevraldagi “Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”ni tasdiqlash haqida 5-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 30- iyundagi “Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”ni tasdiqlash haqida 24-son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B.Begalov